

**ZIYO GO'KALP QARASHLARIDA VA ISLOM DINIDA O'LIM
VA BARHAYOTLIK.**

Xamdamov Erkin Ibodullayevich

"ALFRAGANUS UNIVERSITY" nodavlat oily ta 'lim tashkiloti

Ijtimoiy fanlar kafedrasи o 'qituvchisi

Tel.: +99899 517-34-87

e-mail: hamdamoverkin5@gmail.com

Orcid: 0009-0003-0761-964X

Annotatsiya: mazkur maqolada hayot inson uchun eng qadrli ne 'matligi, bu foniy dunyoda inson bir marta yashashi, o`zidan yaxshi nom qoldirishi o`ziga va o`zgalarga mehrbon bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiya ijtimoiy mafkurasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan, jamiyat uchun zarur g'oyalarni targ'ib etishga uringan mashhur turk faylafusi, sotsiologи Mehmet Ziyo Go'kalp va islam dinida o'z joniga qasd qilish. O'z joniga qasd qilish azaldan har qanday jamiyat va tuzumda yuz berib kelayotganligi, ammo ilgari asosan katta yoshlilar orasida uchraydigan bu holat, keyingi paytlarda tobora "yosharib" borayotganligi, psixolog, pedagog, shifokor, sotsiolog, suitsidolog kabi turli sohalarning mutaxassis va ekspertlarning yechim topishda muamolarga duch kelishlari.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, Jannat, do`zax, qasd, suiqasd, hayot ne 'mati.

Sobit ibn Zahhokdan rivoyat qilingan hadisda

Payg'ambarimiz sollalohu alayhi vasallam shunday deganlar:

"Kim bu dunyoda o'zini biror narsa bilan o'ldirsa, qiyomatda ham unga o'sha narsa bilan azob beriladi" (Imom Buxoriy rivoyati).

KIRISH. O'z joniga qasd qilish-shaxsning muayyan sabablar tufayli o'z hayotini tugatish maqsadida sodir etgan suitsidal harakati natijasida shaxsning

o'limi yuz berishi. O'z joniga suiqasd qilish-shaxsning muayyan sabablar tufayli o'z hayotini tugatish maqsadida sodir etgan suitsidal harakati¹. Darhaqiqat hozirgi kunda bu salbiy holatlar tez-tez kuzatilmoxda. Afsuski buni bir qancha sabablari bor lekin shuni unutmaslik kerak. Hayot insonga bir martagina beriladigan oliy nemat. Inson uni chiroyli, mazmunli va esda qolarli qilib yashab o'tishi kerak. Har doim bosib o'tgan hayot yo'liga nazar solganda uni shirin xotiralar bilan eslashi kerak.

“Kimda-kim qasddan bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Olloh g'azab qilgay, lanatlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo'ygan”², - deb takidlab o'tilgan. (“Niso” surasi, 93-oyat). Darhaqiqat insonning hayotini faqat Ollohnинг o'zi olishga haqli. Hattoki, o'sha hayot nemati berilgan shaxs o'z hayotiga o'zi suiqasd qilishi mumkin emas. Islomda birovni o'ldirish qanchalik qoralansa, o'zini-o'zi o'ldirish ham shunchalik qoralanadi.

Go'kalpning fikricha, insonning jismoniy va hissiy hayoti bilan bog'liq eng muhim vazifadan biri o'z joniga qasd qilishdan uzoq turishdir. Bu majburiyat aslida shaxsiy himoya vazifasi bilan bog'liq bo'lgan burch sifatida belgilanishi mumkin. Biroq, Go'kalp o'z joniga qasd qilmaslikni alohida burch sifatida ko'rsatadi. Davrning og'ir sharoitlarida jonini bergenlar sonining ko'payishi bu yerda samarali bo'lgan bo'lishi mumkin. Uning so'zlariga ko'ra, yillar davomida mamlakatlarda o'z joniga qasd qilish holatlari ko'payishining eng ko'p uchraydigan ikkita sababi – psixologik kasalliklar bundan mustasno – yolg'izlik va ichkilikbozlikdir. Go'kalpning fikricha, odamlarni ijtimoiy jihatdan o'z muhiti bilan bog'laydigan aloqalar qanchalik zaif bo'lsa, ularda o'z joniga qasd qilish xayollari shunchalik ko'p bo'ladi.

Islom dinida inson vafot etgach, u qiyomat kuni qayta tiriladi, deb ta'lim berish bilan imon ahllari qalbiga umid bag'shlaydi va hayotdan abadiy yo'q bo'lib ketish dahshatidan xalos qiladi. Shuni unutmaslik kekki, o'lim u haqdagi

¹O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Bosh prokururaturasi, Ichki ishlar vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 13-iyuldag'i 39, 31-q/q, 50, 34, 14-2018-sod qarori.

²Qur'on Karim. Ma'nolarining tarjima va tafsiri muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Munir. 2021. - B.93.

bilimlarning bir vaqtida aniqligi va noaniqligi bilan ham insonni qo‘rquitadi, o‘lim inson tajribalari orasida eng noaniq jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli insonlar azaldan “o‘lim darvozasi”dan o‘tganlaridan keyin qanday hodisa ro‘y berishini bilishga qiziqib kelgan.

Qur’oni Karimning “Moida” surasida: “Albatta kim odam o‘ldirmagan va yer yuzida fasod qilmagan bir jonni o‘ldirsa, xuddi barcha odamlarni o‘ldirgandekdir”³, - deyilgan. Islom dinida, bir insonning hayotiga tajovuz qilib, uni o‘ldirishga jur’at etgan odam butun insoniyatni o‘ldirgandek bo‘ladi. Chunki u insonlik haqqini nohaqdan poymol etdi. Faqat Ollohnning o‘ziga xos bo‘lgan narsaga, Ollohnning o‘zidan boshqa ato eta olmaydigan ulug‘ nematga tajovuz qildi. Shuningdek, inson hayotini himoya qilish masalasi ham mazkur haqning ulug‘lidan yuqori baholanadi. “Kim bir jonni tirik qoldirsa, xuddi barcha odamlarni tiriltirgandek”⁴, deyiladi. Biror odamning o‘limdan saqlanib, hayotda qolishga sababchi bo‘lgan odam, butun insoniyatning hayotini saqlab qolishga sabab bo‘lgan kishidek taqdirlanadi. Hayot Olloh tomonidan berilgan haq bo‘lgani uchun uni hech kim birovga minnat qilmaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilish turmush qurganlarga qaraganda ko‘proq bo‘ydoqlarda uchraydi. Shunga qaramay, statistik ma'lumotlarga ko‘ra, turmush qurgan, lekin farzand ko‘rmaganlar orasida, farzandli bo‘lganlar; turmush qurgan boy odamlarda kambag‘al turmush qurganlarga nisbatan; Dindor bo‘lman odamlarda o‘z joniga qasd qilish darajasi dindorlarga qaraganda yuqori⁵. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, hayot insonga qanchalik ko‘p yuk bo‘lsa, inson bu hayotni tark etish haqida shunchalik kam o‘laydi. Bu sabablarga ko‘plab ikkinchi darajali sabablarni ham qo‘sish mumkin. O‘z-ozini o‘ldirish ko‘p qirrali muammo bo‘lib, u nafaqat tibbiyot xodimlari, balki boshqa fan mutaxasislari, jumladan, sotsiolog, psixolog, psixiatr, pedagog hatto iqtisodchilarning diqqat e’tiboriga molik⁶. Bundan

³ Qur’oni Karim. Tarjima va sharhlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: Cho`lpon. 1992. -B.76.

⁴ Qur’oni Karim. Tarjima va sharhlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: Cho`lpon. 1992. -B.76.

⁵ Gökalp Z.Felsefe Dersleri. Sad. ve Yay. Haz.: Ali Utlu-Erdoğan Erbay.Çizgi Kitabevi. Konya, 2006. -S. 791.

⁶ Амбрумова А.Г. Психология одиночества и суицид. - //Труды Московского НИИ психиатрии. Том № 92. 1981. - С. 69-80.

ko‘rinadiki o‘z joniga qasd qilish nafaqat islom dinidagi, balki barcha fanlarning dolzarb muammolaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Islom dinida nafaqat o‘zini o‘ldirish, balki o‘ziga o‘zi o‘lim tilash ham man qilingan.

Islom dinida har qanday insonning hayoti juda qadrli bo‘lganidan ham jon kirgan homilani oldirib tashlash qotillik hisoblanadi. Bu ish johiliyat davrida bolani tiriklayin ko‘mib tashlashning kichik ko‘rinishi deb baholanadi. O‘z rohatini o‘ylab joni bor homilasini oldirib tashlagan ayol o‘z bolasining qotilidir. Bu ishni bajargan odam ham shu jinoyatga sherik bo‘ladi. “...Ollohning o‘zi inson zotini vujudga keltirar ekan, uni turli qiyofada, nafaqat yuz ko‘zi, balki fe’l-atvorini ham bir-biriga o‘xshamaydigan qilib yaratgan. Yer yuzida qancha inson yashaydigan bo‘lsa, barmog‘ining izi ham, ichki dunyosi ham bir xil bo‘lgan ikkita odamni toppish, uchratish qiyin. Tabiiyki, bu insonlarning fikrlash va yashash tarzi ham bir-biridan farq qiladi”⁷, - deb inson hayotini naqadar eng oliy ne’mat sifatida ardoqlaydi.

Darhaqiqat, hayot haqqini insonga Olloh bergen. Uni insondan faqat Ollohgina olishi mumkin. Bu jarayon tabiiy holda kechishi yoki Ollohning hukmiga binoan qatl jazosini ijro etish bilan bo‘lishi mumkin. “Baqara” surasi 179-oyatda: “Sizlar uchun qasosda hayot bor ey aql egalari! (Bu bilan) shoyad (qotillikdan) saqlansangiz”⁸, - deyiladi. Ko‘rinib turibdiki, Islom dini inson hayotini ulug‘laydi, insondagi hayot haqqini hurmat qiladi va uni qo‘riqlaydi.

“Yosin” surasining 12-oyatida: “Albatta, Biz o‘liklarni tiriltirurmiz va ularning (o‘limidan oldin) yuborgan amallarini hamda (qoldirgan) asoratlarini (ommaga foydali yo zararli ishlarini) yozib qo‘yurmiz. (Biz) aniqlab beruvchi Imom (Lavhul-mahvuz)da barcha narsani hisobga olganmiz”⁹, - deb bayon qilinadi. Angliya mikrobiolog olimlari, tabiiy-ilmiy tasdiqlovchi olamshumul kashfiyotni amalga oshirgan. Ular insonning oxirgi umrtqa pog‘onasining ichida juda ham kichik, gavhar urug‘ borligini aniqlaganlar. Bu gavhar shunday qobiq

⁷ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. -B. 23.

⁸ Qur’oni Karim. Ma`nolarining tarjima va tafsiri muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: “Munir”, 2021. -B.27.

⁹ Qur’oni Karim. Ma`nolarining tarjima va tafsiri muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: “Munir”, 2021. -B.440.

bilan o‘raglan ekanki, u hech qachon chirimas, yo‘q bo‘lib ketmas, hatto o‘ta yuqori haroratda ham dosh bera olar ekan. Tajriba paytida gavhar qobig‘iga turli kimyoviy moddalar ta’sir ettirilganda ham u o‘z xususiyatini o‘zgartirmagan¹⁰. Demak inson jasadi o‘tda yonib yoki tuproqda chirib yo‘q bo‘lib ketsa ham, uning gavhariga aslo zarar yetmaydi. Olloh taolo bu haqiqatni o‘z vaqtida payg‘ambarga vahiy orqali aniq ravshan ma’lum qilgan. Bundan qariyb XVI asr muqaddam Muhammad (s.a.v) “Insonning hamma a’zosi chirib, dumg‘azasigina saqlanib qolur, insonning qayta tarkib toptirilmog‘iga shu dumg‘aza asos bo‘lur”¹¹. Abu Hurayradan roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) bunday deganlar: “Insonning hamma joyi chirib yo‘q bo‘ladi, faqat dumg‘aza suyagi chirimaydi. Inson undan yaratilgan edi, qiyomat kuni yana undan yaratiladi”¹², - deb marhamat qilingan hadislar XX asr fanida ilmiy asoslandi.

Barcha diniy va falsafiy ta’limotlar ham o‘lim – haq, hech kim undan qochib qutila olmaydi, deya ta’lim beradi. Shunday ekan, inson o‘lmoq uchun yaralgan deb aytish ham mumkin. Yunon faylasufi Arastu dunyoga yangi kelgan har bir chaqaloq, bu – o‘lim manbaidir, deb takidlaydi. Nemis ma’rifatparvari I.V.Gyote esa: “Tug‘ilmoq o‘lim sari qo‘yilgan ilk qadamdir”¹³, - deya ogohlantiradi. Binobarin, Odam Ato surriyotining ushbu dunyodagi hayotini juda qisqa ifoda etish mumkin: inson tug‘iladi, yashaydi va o‘ladi. U endi bu dunyoda qilgan ishlari, yaxshi-yomon amallari yuzasidan Yaratgan huzurida hisob bermog‘i kerak. Olloh suygan bandalar – payg‘ambarlar, aziz-avliyolar o‘limni aslo sedan chiqarmagan, ular bu foni dunyoni imtihon olami, haqiqiy boqiy dunyoga tayyorgarlik ko‘rish olami deb bilgan. Shu o‘rinda Mavlono Jaloliddin Rumiy bunday kishilar toifasining farqlanishi haqida gapirib: “Ollohnning nuri bilan nazar solgan zot hamma narsani, avval va oxirini, ularda

¹⁰ Курский А.Н. Психо-фактор тайны человеческой личности. М.: Рипол классик , 2001. С. 39.
<https://www.ozon.ru/product/psi-faktor-tayny-chelovecheskoy-lichnosti-kurskiy-a-n-1597752371/>

¹¹Imom al-Buxoriy Hadislar 4 jildlik, 3-jild. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. -B. 307.

¹²https://islom.uz/maqola/8722?fbclid=IwAR0LcqO7PRP0oWudUOAmgh5lOU4roP1Mv_AbT0FAIVCsTnwKrRBxNY-Hp0

¹³ <https://hikmatlar.uz/quote/2337>

bo‘lgan va bo‘lmasanni ko‘ra oladi. Chunki Olloh nuridan pinhon qolmas. Agar pinhon qolsa, demak u ilohiy nur emas”¹⁴, - deb yozadi.

Islom dini bandalarga o‘limdan qo‘rmaslikni buyuradi, chunki savob amallar qilgan, muntazam ibodatda bo‘lgan mo‘minga o‘lim qo‘rinchli va dahshatli emas. Shuningdek, Islomda “qabr azobi” degan tushuncha ham bo‘lib, “Tavba” surasining 101-oyatida: “Tavaragingizdagি arobiylar va Madina aholisi ichida munofiqlar bor. (Ular) nifoqda bardavomdirlar. Ularni (Siz) bilmaysiz, ularni Biz bilamiz. Albatta, ularni ikki bor azoblaymiz. So‘ngra (qiyomatda) ulkan azob (do‘zax)ga qaytarilurlar”¹⁵, - deb takidlanadi.

Qiyomat – bu dunyoning tugashi bilan oxirat kunining boshlanishidir. Qiyomat haqida Qur’oni Karimda bunday marhamat qilingan: “Bas qachon katta balo (ya’ni Qiyomat) kelganida – inson o‘z qilmishini eslab qoladigan Kunda va do‘zax ko‘radigan (har bir) kishiga ko‘rsatib qo‘yilganida, bas, ana o‘shanda kim (hayoti dunyoda kufru isyon bilan) tug‘yona tushgan va hayoti dunyoni (oxiratdan) ustun qo‘ygan bo‘lsa, u holda, faqat jahannamgina (uning uchun) joy bo‘lur! Endi kim (hayoti dunyodalik paytida Qiyomat kuni mashhargohda) Parvardigorning (huzurida) turishi (va u zotga hisob-kitob berishi)dan qorqqan va nafsi havoyi xohishlardan qaytargan bo‘lsa, u holda faqat jannatgina uning uchun joy bo‘lur”¹⁶.

Fonyi dunyoda har bir qilgan ishimiz boqiy dunyo uchun asos bo‘ladi. O‘z joniga qasd qilishning yana bir muhim sababi spirtli ichimliklarga qaramlikdir. Chunki aslida buni sekin o‘z joniga qasd qilish deb hisoblash mumkin. Spirtli ichimliklar shunday dahshatli dushmanki, uni yengish uchun faqat uning tabiatini tushuntirish va ta’sirini ko‘rsatish kerak. Go‘kalpning fikricha, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish natijasida yuzaga keladigan moddiy va ma’naviy buzilish holati insonni xarob qiladi.¹⁷ Mastlik tez-tez sodir

¹⁴ Mavlono Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichingdadur. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. -B. 113.

¹⁵ Qur’oni Karim. Ma`nolarining tarjima va tafsiri muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: “Munir”, 2021. -B.203.

¹⁶ Qur’oni Karim. Tarjima va sharhlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: Cho`lpon. 1992. -B.483-484.

¹⁷ Gökalp Z.Felsefe Dersleri. Sad. ve Yay. Haz.: Ali Utku-Erdoğan Erbay.Çizgi Kitabevi. Konya, 2006. -S.792.

bo'lganda, uning zaruriy oqibati emas mast bo'lmasdan o'zini mayda o'qlar bilan zaharlashda davom etayotganligi achinarli holat hisoblanadi.

Spiriti ichimliklarga qaramlik odamlarga jismoniy va ruhiy zarar etkazadi. Jismoniy jihatdan hisobga olinsa, spiriti ichimliklarni iste'mol qilish barcha organlarga zarar etkazadi. Ovqat hazm qilish muammolari, jigarning qattiqlashishi va zaharlanishi, nafas olish muammolari, yurak kasalliklari, buyraklar yallig'lanishi va urologik kasalliklarga olib keladi. Miya, orqa miya va miya pardalariga sezilarli zarar etkazadi; Bu titroq, sezuvchanlikni yo'qotish va umumiy falajni keltirib chiqaradi. Boshqa tomondan, u organizmni zaiflashtiradi¹⁸.

Spiriti ichimliklarga qaramlik organizmga yetkazadigan zararidan tashqari, insonga psixologik ta'sir ko'rsatadi¹⁹. Chunki alkogol ta'sir qiladigan birinchi narsa - bu hukm va iroda. U o'z fikrlarini, xatti-harakatlarini va mulohazalarini nazorat qila olmaydi va o'zini aldashdan xalos qila olmaydi. Shu sabablarga ko'ra uning nutqi tartibsiz, imo-ishoralar jonli va qaysar bo'lib qoladi. Uning aqli boshqarish qobiliyatini yo'qotganda, uning tasavvurlari uyg'onadi va unga quvonchli xotiralarni eslatadi. Ammo bu daqiqalar qisqa vaqt davom etadi. Shundan so'ng darrov shahvat, g'azab, horg'inlik, g'am-g'ussa, umidsizlik va pushaymonlikni his qila boshlaydi²⁰. Spiriti ichimliklarga qaramlik ko'pincha o'z joniga qasd qilish va aqldan ozishga olib keladi. Go'kalp bu fikrni statistik ma'lumotlar bilan ham qo'llab-quvvatlaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'z joniga qasd qilish holatlari ko'p bo'lgan mintaqalar spiriti ichimliklarni ko'p iste'mol qilinadigan mamlakatlardir.

Spiriti ichimliklarga qaramlik organizmga va psixologiyaga yetkazadigan zarardan tashqari, jamiyatga ham salbiy ta'sir qiladi. Chunki spiriti ichimliklarni iste'mol qilish nafaqat uni iste'mol qiladigan odamga, balki u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan shaxslarga ham ta'sir qiladi. Spiriti ichimliklarning salbiy ta'siri birinchi navbatda bolalarga ta'sir qiladi. Alkogolizmdan tug'ilgan bolalarga ota-

¹⁸Gökalp Z.Felsefe Dersleri. Sad. ve Yay. Haz.: Ali Utlu-Erdoğan Erbay.Çizgi Kitabevi. Konya, 2006. -S.792-793.

¹⁹ Gökalp Z. Türk Ahlaki, Türk Kültür Yayınları, İstanbul. 1975. – S.34.

²⁰Gökalp Z.Felsefe Dersleri. Sad. ve Yay. Haz.: Ali Utlu-Erdoğan Erbay.Çizgi Kitabevi. Konya, 2006. -S.793.

onalari jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga asoslanib, ichkilikbozlarning bolalarining ko'pchiligi erta yoshda vafot etganini yoki jiddiy kasalliklarga duchor bo'lgani ta'kidlanadi. Boshqa tomondan, Go'kalpning fikricha, spirtli ichimliklar ham oilani buzadi. Spirtli ichimliklar oilaning har bir a'zosiga yomon ta'sir qiladi. Oilani ham moddiy, ham ma'naviy larzaga soladi, buzadi, qadr-qimmatsiz qoldiradi. Bundan tashqari, ichkilikbozlik xalqlarni qashshoqlashtiradi, zaiflashtiradi va jiddiy zarar keltiradi. Spirtli ichimliklarga qaramlik ish kunlarini yo'qotish, davolanish va ishsizlik xarajatlari, aqldan ozish, o'z joniga qasd qilish va tasodifiy o'limlar, qotillik uchun jazo xarajatlari kabi xarajatlar bilan mamlakatlar iqtisodiyotiga yomon ta'sir qiladi. Shunday qilib, alkogolizm boshqa barcha ofatlardan ko'ra ko'proq zarar keltiradi²¹.

Bu baholashlar Go'kalpni alkogolizmga qarshi kurashish kerak degan xulosaga olib keladi. Spirtli ichimliklarga qarshi kurash olib, spirtli ichimliklar keltirgan zararni katta darajada kamaytirgan davlatlarga misollar keltirgan Go'kalp, o'z joniga qasd qilmaslik burchining talab qilgan burchi sifatida alkogolga qarshi kurashish ham shaxslarning burchi ekanligini aytdi. Bu burchdir, chunki har bir shaxs o'ziga, atrof-muhitga, jamiyatga yetkazilgan zararlardan xalos bo'lish va undan manfaat ko'rish uchun ichkilikbozlikka qarshi kurashishga majburdir²².

Shunisi e'tiborga loyiqliki, Go'kalp o'z joniga qasd qilish kontseptsiyasini shaxsiy vazifalar doirasida asosiy pozitsiyada ko'radi. O'z joniga qasd qilishdan qochish, shaxsiy burchlardan biri bo'lgan o'z-o'zini himoya qilish burchini to'ldiruvchi sifatida baholanishi mumkin bo'lsa-da, Go'kalp axloqida o'z joniga qasd qilishni alohida ta'kidlanishi uchun ijtimoiy yoki intellektual asos bo'lishi kerak. Urush davridagi qiyinchiliklar natijasida jamiyatda o'z joniga qasd qilish darajasi ortdi va Go'kalp bu vaziyat tufayli o'z joniga qasd qilishga alohida to'xtalgan bo'lishi mumkin. Ushbu tadqiqotning intellektual asosi, Go'kalpning axloqiy falsafasiga Dyurkhemning axloq haqidagi g'oyalari sezilarli darajada

²¹Gökalp Z.Felsefe Dersleri. Sad. ve Yay. Haz.: Ali Utlu-Erdoğan Erbay.Çizgi Kitabevi. Konya, 2006. -S.794.

²²Gökalp Z.Felsefe Dersleri. Sad. ve Yay. Haz.: Ali Utlu-Erdoğan Erbay.Çizgi Kitabevi. Konya, 2006. -S.794-795.

ta'sir qilganligi haqidagi da'vo bilan bir qatorda, asosiy tezislaridan biri bo'lgan o'z joniga qasd qilish kontseptsiyasidir.

Go'kalp o'z joniga qasd qilish tushunchasini muhokama qilgan bayonotlarida Fransiyadagi o'z joniga qasd qilish statistikasini dalil sifatida keltirgan bo'lsada, o'zi yashagan jamiyat haqida hech qanday jumla kiritmagan²³. Boshqa tomondan, jamiyatga yo'naltirilgan axloqiy nazariya va yangi hayot nutqi bilan maydonga chiqqan mutafakkirning hayotga baraka berishi, o'z joniga qasd qilish va o'z joniga qasd qilish sabablarini shaxsning o'zini o'zi anglashidagi to'siqlardan biri sifatida ko'rishi juda normal holat. Lekin shuni unutmaslik kerak foni dunyodagi ba'zi "orom beruvchi lahza" ni deb biz uchun vada qilingan Jannatda judo bo'lmasligimiz kerak. Qur'oni Karimda bu xususda: "Taqvo egalari uchun vada qilingan jannatning misoli - sifati (budur): unda aynimagan suvdan bo'lgan daryolar ham, ta'mi o'zgarmagan sutdan bo'lgan daryolar ham... musaffo asaldan bo'lgan daryolar ham bordir... Ular ... (u joyda) qaynoq suv bilan sug'orilib, u (suv) ichaklarni bo'lak-bo'lak qilib tashlagan (kofir) kimsalar kabi bo'lurmi"²⁴, - deb takidlanadi.

Jannat insonning bu dunyoda qilgan savobli ishlari va amallari uchun berilgan rohat-farog'at joyi sifatida qayd etiladi. Do'zax esa uning aksidir. Demak jannat yoki do'zax masalasi inson ma'naviy-axloqiy kamolotini belgilovchi tushunchalar sifatida ham qayd etiladi. Bu tushunchalar insonning o'lim va barhayotlik to'g'risidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'liq.

Biroq o'lim har bir insonda turlicha kechishi tabiiy hol. Jumladan, inson o'z hayotida faqatgina yaxshi amallar va savob ishlari qilish bilan shug'ullangan bo'lsa, o'lim u uchun rohat-farog'atdir. Aksi bo'lsa, o'lim u uchun dahshat va og'riqdan boshqa narsa emas. Shu ma'noda, Gippokrat: "Yomonliklarsiz kechgan o'lim, charchab ketgan odamning uyqu bosib, uxlab qolayotganiga

²³Gökalp Z.Felsefe Dersleri. Sad. ve Yay. Haz.: Ali Utlu-Erdoğan Erbay.Çizgi Kitabevi. Konya, 2006. -S.791-792.

²⁴Qur'oni Karim. Tarjima va sharhlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: Cho`lpon. 1992. -B.382.

o‘xshaydi. Tani-joni rohatlanib, abadiy uyquga ketadi. O‘lim azoblari esa insonning qilgan yomon amallariga berilgan javobdir”²⁵, - degan edi.

Qur’oni Karimning “Taborak” surasi 2-oyatida Olloh o‘lim va hayot ne’matlarini nima uchun yaratganini ta’kidlab: “(Ey insonlar, U) sizlarning qaysilaringiz chiroyliroq-yaxshiroq amal qilguvchi ekanlariningizni imtihon qilish uchun o‘lim va hayotni yaratgan zotdir. U qudratli va ma’g“firatlidir”²⁶, - deyiladi. Bu holat o‘limga diniy nuqtainazardan e’tibor berilib, insonning o‘limidan keyin qayta tirilishi va hayotligida qilgan yaxshi-yomon amallari uchun javob berishlari nazarda tutilgan.

Yuqoridaq oyatda o‘lim so‘zi hayot so‘zidan oldin keltirilishiga sabab, o‘lim kalimasining mazmuni hayot kalimasining manosidan teranroq, keng qamrovliroq ekanligidadir. Chunki hayot so‘zi qisqa va o‘tkinchi dunyoda yashashning boshlanishini bildirsa, o‘lim so‘zi oxirat diyoridagi mangu hayotning boshlanishini anglatadi. Demak islom ta’limotida o‘lim yuzaki qaraganda hayotning intihosi bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida u mangu hayotning ibtidosidir.

XULOSA. Ziyo Go‘kalp qarashlarida o‘lim va barhayotlik, o‘z joniga qasd qilishni turli tashqi omillar bilan bog‘liq holda aks etgan bo‘lsa, axloq kategoriyalariga zid holda bo‘lishini takidlab o‘tgan. Hozirgi kunimizda o‘z joniga qasd qilish asosan ruhiy, ma’naviy, jismoniy tazyiqlar sababli bo‘lsa. Nosog‘lom oilalarda spirtli ichimlik va turli xil giyohvand moddalar ta’siriga tushib o‘z joniga qasd va suyiqasd qilish holatlari kuzatilmoxda. Shuni ham unutmaslik kerakki Ziyo Go‘kalp yashagan davrda mobil aloqa va internet bo‘limganligi uchun bu holatga to‘xtalmadik.

Diniy manbalardagi o‘lim va barhayotlik g‘oyalarini tahlil qilganda, dindagi o‘lim va hayotga munosabat tiriklik vaqtida o‘limning mavjudligini bilish, unga hayot davomida tayyorlanish, o‘limdan keying ruhiy olamning jannat va do‘zaxga bo‘linishi, hayotlik davrida uning talablari bo‘yicha yashash

²⁵ https://archive.org/details/20201101_gippokrat

²⁶ Qur’oni Karim. Tarjima va sharhlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: Cho`lpon. 1992. -B.448.

lozimdir. Inson hech qachon abadiy yashamaydi, ammo u sog'lom va tinch hayot kechirishga intilib, o'z hayotini uzaytirishga harakat qiladi. Inson Yaratganning amriga to'laligicha amal qilib yashasa, gunoh va salbiy ishlardan o'zini tiyib oqilona, imonga asoslanib hayot kechirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Islom dini inson o'limidan keyingi hayoti haqida uzil-kesil diniy-falsafiy bilimlar beradi. Odamzot hayoti mobaynida qilgan yaxshiyu yomon amallariga qarab, jannatga yoki do'zaxga ajratiladi. Gunohkorlar do'zax azoblariga mustahiq etilsa, soleh va soliha mo'minlar jannat farog'atiga noil bo'ladi. O'lim va barhayotlik haqidagi diniy tasavvurlar xilma-xil bo'lsada, ulardagi asosiy mushtaraklik insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti bilan bog'liq jihatlarda yorqin namoyon bo'ladi. Jahon miqyosida tan olingan muayyan diniy manbalarning ildizi bir bo'lganligi tufayli o'lim to'g'risidagi tasavvurlarda ham bir-biriga juda yaqin o'xhashliklar kuzatiladi.

Demak, o'lim va barhayotlik insonda, hayotga bo'lgan munosabatdagi mas'ulyat hissini shakllantirishda, uni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat uning bu dunyoda faqatgina ezgu ishlar qilishiga undashi bilan ham ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 13-iyuldagli 39, 31-q/q, 50, 34, 14-2018-son qarori.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim. Ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Munir. 2021.
4. Alouddin Mansur. Qur'oni Karim. Tarjima va sharhlar. – Toshkent: Cho'lpon. 1992.

5. Go'kalp Z. Felsefe Dersleri. Sad. ve Yay. Haz.: Ali Utku-Erdoğan Erbay. Çizgi Kitabevi. Konya, 2006.
6. Gökalp Z. Türk Ahlakı, Türk Kültür Yayınları, İstanbul. 1975.
7. Амбрумова А.Г. Психология одиночества и суицид. - //Труды Московского НИИ психиатрии. Том № 92. 1981. - С. 69-80.
8. Imom al-Buxoriy Hadislar 4 jildlik, 3-jild. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyyati, 1992.
9. Курский А.Н. Психо-фактор тайны человеческой личности. М.: Рипол классик, 2001. С. 39. <https://www.ozon.ru/product/psi-faktor-tayny-chelovecheskoy-lichnosti-kurskiy-a-n-1597752371/>
10. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichingdadur. – Toshkent: Yozuvchi, 1997.
11. Xamdamov, Erkin Ibodullayevich. ZIYO GO'KALPNING HISSIY VA RATSIONAL AXLOQ TO'G'RISIDAGI QARASHLARI. 154-161 https://oriens.uz/media/journalarticles/25_Xamdamov_Erkin_Ibodullayevich_15_4-161.pdf
12. https://archive.org/details/20201101_gippokrat
13. <https://hikmatlar.uz/quote/2337>
14. https://islom.uz/maqola/8722?fbclid=IwAR0LcqO7PRP0oWudUOAmgh5lOU4roP1Mv_AbT0FAIVCsTnwKr_RBxNY-Hp0

